

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**SENTYABR, 2025**



**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiyalar.com>

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

**TOSHKENT-2025**

**ISSN - 3093-8791**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 25-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzARB muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Karimov Rustam*

TO'QUV JARAYONIDA TANDA VA ARQOQ IPLARINING O'ZARO ISHQALANISHINING SIFAT VA  
ISH UNUMDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH ..... 5-11

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Toxirov Kozim*

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI  
DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH ..... 12-15

### TARIX FANLARI

*Rahmatov Muhriddin*

XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI ..... 16-19

*Norov Shuhrat*

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOIY FAOLLIK VA IQTISODIY  
ERKINLIK ..... 20-23

*Abdimurodova Zebiniso*

TERMIZ MUZEYI — O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY ..... 24-29

### IQTISODIYOT FANLARI

*Олеся Авдошкина*

ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ПРАКТИК ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ  
МАЛОГО БИЗНЕСА ..... 30-35

*Суюнова Саодат*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ЭКОТУРИЗМА ..... 36-41

### FILOLOGIYA FANLARI

*Zokirova Barchinoy*

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOYILLARI ..... 42-45

*Eshchanova Mavjuda*

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING MADANIY FARQLARI VA  
ULARNING TARJIMADA SAQLANISHI MASALALARI ..... 46-49

*Razikov Baxtiyor*

EMOJI VA HASHTAG BIRLIKHLARI NEOLOGIZM SIFATIDA: FUNKSIONAL-PRAGMATIK  
KUZATUV ..... 50-52

### YURIDIK FANLARI

*Nishanov Sanjar*

SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'EKTIV  
VA SUB'EKTIV OMILLAR ..... 53-59

### PEDAGOGIKA FANLARI

*G'aniyev Shaxzod*

TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ..... 60-65

*Najmetdinova Nargiza*

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
ASPEKTLARI ..... 66-69

**TIBBIYOT FANLARI***Yuldasheva Zulkhumor*COMPARATIVE OBSERVATION OF ARRHYTHMIAS IN HEALTHY PREGNANT WOMEN AND  
THOSE WITH MITRAL VALVE PROLAPSE: A CLINICAL PERSPECTIVE ..... 70-73**SIYOSIY FANLARI***Toshpulatov Shohruxbek*

MARKAZIY OSIYODAGI LOGISTIK TARMOQ ..... 74-80

## TARIX FANLARI

### XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI

#### Rahmatov Muhiddin Azimovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston

Email: [muhiddinrahmatov9399@gmail.com](mailto:muhiddinrahmatov9399@gmail.com)

Tel: 99-48473-70

Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xalq Dorilfununing tashkil topish tarixi, faoliyati va vazifalari hamda milliy ma'rifat taraqqiyotidagi o'rni tahlil etiladi. Dorilfununning ochilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy sharoitlar, faoliyati davomida amalga oshirilgan ta'lif-tarbiyaviy ishlar va ilmiy yo'nalishlar yoritiladi. Shuningdek, uning o'zbek xalqining madaniy-ma'rifiy hayotida qoldirgan izlari ilmiy manbalar asosida o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** xalq dorilfununi, millat taraqqiyot, universitet, dorilmuallimin, arifmetika, madrasa.

### THE HISTORY AND ACTIVITIES OF THE PEOPLE'S DARULFUNNUN

#### Muhiddin A. Rahmatov

basic doctoral student of National University Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan

**Annotation.** In this article, the history of the establishment, functions, and activities of the People's Darulfunnun, as well as its role in the development of national enlightenment, are analyzed. The socio-political conditions that led to its foundation, the educational and pedagogical work carried out during its operation, and its main scientific directions are examined. Additionally, the institution's legacy in the cultural and educational life of the Uzbek people is studied based on academic sources.

**Key words:** people's Darulfunnun, national development, university, Darulmuallimin, arithmetic, medrese

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i7/n03>

#### Kirish:

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar milliy uyg'onish harakatining kuchayishiga zamin yaratdi. Jadidchilik faoliyati natijasida ta'lif-tarbiya sohalarida islohotlar boshlandi. Bu jarayon, o'z navbatida, xalqning ilm-ma'rifatga bo'lgan ehtiyoji va intilishini kuchaytirib, o'sha davr uchun zamonaviy ta'lif muassasalarini tashkil etish zaruratini yuzaga chiqardi. Shunday tarixiy ehtiyoj asosida 1918-yilda Toshkent shahrida Xalq Dorilfununi (xalq universiteti) tashkil etildi. Mazkur dorilfunun — o'zbek xalqining milliy taraqqiyoti va ma'naviy yuksalish yo'lida tashlangan muhim qadamlardan biri bo'lib, qisqa faoliyatiga qaramay, yangi zamonaviy ta'lif tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

#### Asosiy qism:

Dorilfunun (arab.) – Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o'quv yurtlarining nomi. Ba'zi mamlakatlar (Eron)da o'rta o'quv yurti, boshqa ayrim mamlakatlar (Turkiya)da esa oliy o'quv

yurti (universitet) ma'nosida qo'llanadi. 1920-1930-yillarda O'rta Osiyoda ham universitet ma'nosida ishlatalig[n1].

1918-yil aprel oyida Turkiston xalq dorilfununini tashkil qilish bo'yicha ishlar boshlanadi. Bu davr mobaynida bir qancha kengashlar bo'lib o'tadi. Munavvar qori Musulmon xalq dorilfununini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Bunga ko'ra Munavvar Qori (rais), Burhon Habib, Iso To'xtaboyev, Sodiq Abdusattorov, Murodbek, Murodxo'ja, Muxtor Bakir, Abdusami Qori Ziyoboyev va boshqalar a'zo bo'lganlar. Komissiya Musulmon xalq dorilfununini ham shu davrda rus tizimi asosida tuzilgan Turkiston Xalq dorilfununi kabi uch bosqichda tashkil etadi: yuqori bosqich — dorilmuallimin (o'qituvchilar instituti); o'rta bosqich — o'rta hunar maktablari: quyi bosqich — boshlang'ich maktablardan iborat bo'ladi. 3-may kuni Musulmon xalq dorilfununi rahbariyatiga saylov bo'lib o'tadi. Unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso To'xtaboyev rektorning birinchi, Burhon Habib ikkinchi o'rnbosarlari, Abdusami Qori Ziyoboyev xazinador, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadi.

1918-yil 12-may kuni eski Toshkent dahasidagi Vikula Morozov magazini binosida Musulmon xalq dorilfununing tantanali ochilish marosimi bo'ladi. Majlisda taxminan besh yuz kishi ishtirok etadi. Bunda ishchilar, zahmatkashlar, ziyolilar, hukumat vakillari, har bir tashkilotlardan delegatlar, muallimlar, ziyoliy xonimlar, mudarrislar, qozilar qatnashgan. Ruslardan 60-70 kishi bu tadbirda bo'lgan[n2]. Ochilish marosimini Munavvar Qori qisqacha kirish so'zi bilan ohib, musulmonlar rus kolonial davrida rus yo'qsillari bilan birgalikda yarim asr qullikda yashagani, bugungi ozodlik va tantana katta talofatlar bilan qo'lga kiritilganligini ma'ruza qiladi. Shundan so'ng bu kurashda halok bo'lganlarga bag'ishlab, Qur'oni Karimdan tilovat o'qilib, fatvo beriladi.

Musulmon xalq dorilfununi Munavvar Qori rahbarligida katta bilim va ziyo maskaniga aylanadi. Bu tashkilot 15 ta madaniy-ma'rifiy tashkilot vakillaridan uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqarilgan. Unda faoliyat yurituvchi muallimlar soni 180 nafarga yetadi. Bu muassasa tarkibida 1918-yil 31-maydan boshlab, "Xalq dorilfununi" gazetasi chiqadi. 1918-yil 2-iyun kuni Musulmon xalq dorilfununing yuqori bosqichi dorilmuallimin (o'qituvchilar instituti) ishga tushadi. Unda Abdurauf Fitrat ona tilidan, Kamol Shamsi arifmetika va nemis tilidan, Rahimboyev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilov san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvar Qori (dorilmuallimin mudiri – rektori ham edi) ona tilidan dars beradi[n3].

Turkiston musulmon xalq dorilfunini 1918-yil 31-may o'z faoliyatini boshlagan. Munavvar qori Abdurashidxonov, Murodxo'ja domla va Burhon Habib dorilfununning dasturini ishlab chiqqanlar. Unda musulmonlarning o'zları bu o'quv yurti o'lkada o'qituvchilar yetishmasligi va ularga bo'lgan talab juda ham yuqoriligi uchun ochilgani, o'qish besh yilga mo'ljallanib, shundan bir yili tayyorlov bosqichi, qolgan to'rt yili asosiy bosqichlarga ajratilganini qayd qilganlar. Dorilfununda turk, tatar, ozarboyjon ziyolilari ham dars berishgan, buni tantanali ochilish marosimida Abdulsami qori e'tirof etib, "turk va shimollik qardoshlariga minnatdorchilik" bildirgan. Tatar ma'rifatparvari Muxtor Bakir Turkiston musulmon xalq dorilfununing Samarcand bo'limini ochish ishlariga boshchilik qilgan. Qisqa vaqt ichida dorilfununning Samarcand bo'limi ochilib, Mahmudxo'ja Behbudiy rais, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Shokir Muxtoriy a'zo bo'lganlar. Shunga qaramay sovet hukumati Turkiston musulmon xalq dorilfununi faoliyatiga yo'l bermaydi. Besh yillik o'quv dasturiga mo'ljallangan

dorilfunun oldiniga to'rt oylik o'quvgaga aylantiriladi. 1918-yilning sentabr o'rtalariga kelib esa butunlay tugatiladi. Shundan so'ng, dorilfununning Samarqand bo'limi faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi.

Dunyoning yuqori o'rinalarda turuvchi bu oliy ta'lim muassasi rasman 1918-yil 12-mayda tashkil etilib, qator yillar turli nomlar bilan atalgan. Ya'ni, 1918-yilda Musulmon xalq dorilfununi, 1918-1919-yillarda Turkiston xalq universiteti, 1919-1923-yillarda Turkiston Davlat universiteti, 1923-1960-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti, 1960-2000-yillarda Toshkent Davlat universiteti[4], 2000-yil 28-yanvardan universitetga milliy universitet maqomi beriladi. 1995-yil Mirzo Ulug'bek nomi berilgan. Bugungi kunda bu oliy o'quv yurti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti (O'zMU) – deb yuritiladi.

1918-yil 31-mayda Toshkentda "Xalq dorilfununi" gazetasi chiqqa boshladi. Muharriri tatar ma'rifatparvari Kabir Bakirning ukasi Muxtor Bakir edi. Bu gazetada tatar ziyolilari Abubakir Divayev va Fotih Bakirlar faol ishtirok etishdi. Gazeta oktabr inqilobidan so'ng chiqqa boshlaganligi uchun imkon qadar siyosatga aralashmaslikka intildi. Gazeta buni o'z sahifalarida doim takrorlab turgan. "Xalq dorilfununi"ning maqsadi ta'limni rivojlantirish, maktab va madrasalarni isloq qilish, xalqni jaholatdan xalos qilish edi. Bu gazeta dastlab vaqtarda haftada bir marta, keyin esa (5-sonidan boshlab) haftada ikki marta chiqadi. "Xalq dorilfununi" butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqatilar edi. Bu gazeta ommabop bo'lishi va xalq uni yaqindan tanishi uchun Nashagazeta, Ulug' Turkiston, Turk so'zi singari gazetalarning sonlarida u haqida bat afsil yoritib borilgan.

Gazetaning "Adabiyot" qismida berilgan g'azallarda ham bu oliy maskan e'tirof qiligani diqqatga sazovor. Bu g'azallardan biri "Dorilfunun uchun" deb nomlangan. Muallifi Baxrom Xidris.

"G'ofil o'lmanqiz yoronlar, ochilur Dorilfunun,  
Tabriklang, g'ayrat eting, ilm o'rganing millat uchun!  
Fan kerak, g'ayrat kerak, jahd va jadal kilmoq kerak,  
Tashlangiz g'aflat ila tanballigingiz bus-butun..."

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, Musulmon xalq dorilfununi tashkil topishi uchun qancha qiyinchiliklar, sinovlar ortida vatanparvar jadidlar, millat fidoyilarining faoliyati, jasorati yotadi. Xalq dorilfununi ziyo, ma'rifat va ta'lim izlagan Turkiston yoshlari uchun haqiqiy ilm dargohi bo'lib xizmat qilgan. Bu dorilfununi bugungi kunda jahon retингlari mingtaliklariga kirib kelayot O'zbekiston milliy universitetining bobokaloni desak adashmagan bo'lamiz.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zMU. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Muxtor Bakir. Musulmon xalq dorulfununi rasmiy ochilishi // Ulug' Turkiston. 1918-yil. 16-may.
3. Dilnoza Jamolova. Eng birinchi mакtab ochgan va eng birinchi otilgan jadid – Munavvar qorining sharaflı yo'li // Oyina. 2025. 21-may.
4. Shavkat Miralimov, To'lqin Eshbek. Birinchi o'zbek rektori// Уч илдиз. 2019. 19-fevral.
5. Akmaljon Abdurasulov. Turkistonda vaqtli matbuot va matbaa ishlarini yuzaga kelishida Tatar ma'rifatparvarlari bilan hamkorlik aloqalari// Кибер Ленинка. 2022. Oktabr.
6. Sotvoldiyev Sirojiddin. 1917-18 yillarda nashr qilingan "Turk Eli" va "Turk so'zi" gazetalari tematikasi// Mahmudxo'ja Behbudiy publisistikasi va jadid matbuotida ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi mavzudagi xalqaro ilmiy-amaliy

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 25-avgust

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.